

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

UILYAM SHEKSPIRNING "ROMEO VA JULETTA" ASARI TAHLILI

Abdurasulova Gulyuz,

Amriyev Muxlisbek, Xayrullayeva Gulsevar

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs talabalari

Ilmiy rahbar: Usarova Laylo

Anotatsiya: Ushbu maqola taniqli yozuvchi Uilyam Shekspirning "Romeo va Juletta" asarini atroficha yoritib o'tadi.

Kalit so'zlar: Romeo, Juletta, fojia, sevgi, nafrat, o'zaro dushmanlik, konflikt.

"Romeo va Juletta" fojiali sevgi haqidagi tarixiy asarlar qatoriga kiradi. Asarni Artur Broke 1562-yil "Romeus va Juletning fojiali hikoyasi" nomi bilan she'riy uslubda tarjima qilgan (italyan rivoyatiga hamda Villiam Pointer 1567-yil "Rohat saroyi" (ingilizcha, Palace of Pleasure) asarida nasr bilan yozgan versiyasiga asoslangan). Shekspir har ikki asarga keng tayangan, lekin yangi qahramonlar, jumladan, Mercutio hamda Paris obrazlarini qo'shib, syujetini boyitgan. 1591-1595-yillarda yozilgani aytildigan bu pyesa ilk bor 1597-yil *in-quarto* shaklida chop etilgan. Ammo ilk nashrning sifati past bo'lган. Keyingi nashrlar Shekspir versiyasiga ko'proq mos keladigan qilib o'zgartirilgan. Uilyam Shekspirning "Romeo va Juletta" asari insoniyat tarixidagi eng mashhur va ta'sirchan ramontik dramalardan biridir. Ushbu asar sevgi, nafrat, o'zaro dushmanlik va fojia kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Sheksperning bu asari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham ko'plab insonlar uchun ahamiyatga ega. Ushbu maqolada asarning asosiy mavzulari, qahramonlari va ularning o'zaro munosabatlari tahlil qilinadi.

Asar mavzusi: "Romeo va Juletta" asari sevgi va dushmanlik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatadi. Asarda ikki oilaning (Montagu va Caulet) o'rtasidagi dushmanlik, yoshlarning sevgi hikoyasini yanada murakkablashtiradi. Sevgi asarning markazida bo'lib, u har qanday to'siqlarni yengib o'tishga qodir ekanligini ko'rsatadi. Biroq, bu sevgi fojia natijalariga olib kelishi mumkinligi ham ta'kidlanadi.

Qahramonlar, Romeo Montague- asarning asosiy qahramoni, o'z sevgisi uchun kurashadigan yosh yigitdir. U romantik va idealistik shaxs sifatida tasvirlanadi. Romeo o'zining his-tuyg'ulariga berilib, harakat qiladi, lekin, uning qarorlari ko'pincha fojiali natijalarga olib keladi. Romeo bilan tengdosh bo'lgan, lekin oilaviy an'analar va dushmanliklarga duch keladigan qiz Juletta kuchli, jasur va o'z sevgisi uchun kurashishga tayyor bo'lgan qahramondir. U Romeo bilan bo'lgan munosabatda erkinlik va baxt izlaydi. Asar davomida Shekspir sevgi va dushmanlik o'rtasidagi ziddiyatni kuchli qilib tasvirlaydi. Romeo va Julettaning bir - biriga bo'lgan sevgisi, ularni oilalari o'rtasidagi dushmanlikka qarshi turishga undaydi. Biroq bu sevgining fojiali oqibatlari bor. Ularning sevgisi o'z-o'zidan baxt keltirmaydi, aksincha ularni fojiaga olib keladi. Asarda ko'plab ikkilanishlar mavjud. Masalan, boshanishida Romeo Rozalinda uchun qayg'uradi lekin keyinchalik Julettaga oshiq bo'ladi. Bu holat inson ruhining o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Julettaning ota - onasi tarafdan majburan turmushga berilishi esa uning erkinligini cheklaydi va sevgi yo'lidagi to'siqlarini oshiradi. Asarning eng muhim jihatlaridan biri bu fofja elementidir. Romeo va Julettaning sevgisi oxir oqibatda ularning o'limi orqali Shekspir oilalar o'rtasidagi dushmanlikning natijalarini ochib beradi, va insoniyatni bir biriga mehribonlik qilishga chaqiradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Uilyam Shekspirning "Romeo va Julietta" asari sevgi va dushmanlik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tasvirlaydigan adabiy bir asardir. Ushbu asar orqali yozuvchi insoniyatning eng chuqur his - tuyg'ulari va ularning natijalarini ochib beradi. Romeo va Julettaning fojiali hikoyasi bizga sevgi kuchi uning murakkabligi va hayotdagi to'siqlarni yengib o'tish zarurligini eslatadi. Bugungi kunda ham bu asar ko'plab sahnalarda filmlarda va adabiyotlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uilyam Shekspirning "Romeo va Juletta" roman.
2. Uilyam Shekspir "Romeo va Juletta" asari haqida maqola . Dilnoza Murodova Otobek qizi tarjimasi –2022.